

Shamsiddin Tojiboy o'g'li OFARIN

BAXTI KULGAN
G'UNCHALAR

«Andijon nashriyot-matbaa» OAJ
2007-yil


84(52)6

Shamsiddin Tojiboy o'g'li Ofarin. «Baxti kulgan g'unchalar». (She'rlar). «Andijon nashriyot-matbaa» OAJ, 2007-yil. 36 bet.

TO 34246
Og1

Mazkur she'riy to'plamga shoirning bolalarga bag'ishlab yozilgan she'rlari kiritilgan. Ularda Vatanga sadoqat, beg'ubor bolalik, uning ajib va shirin tuyg'ulari sodda, o'ziga xos ohangda tarannum etiladi.

To'plam bolajonlar uchun manzur she'riy tuhfa bo'ladi, deb o'ylaymiz.



ISBN 978-9943-331-04-4

© Shamsiddin Tojiboy o'g'li Ofarin.
© «Andijon nashriyot-matbaa»
OAJ, 2007.

TABIATDAY SHE'RIYAT

(*Shoir Ofarinning «Baxti kulgan g'unchalar» kitobini o'qib*)

Shamsiddin Tojiboy o'g'li Ofarin Olloh bergen iste'dod sohibidir. U nazmda durust va soz yozadi. Yozganlarida soddalik hamda samimiyat mavjud.

Uning kattalarga yozgan she'riga qaraganda bolalarga yozganlarida samimiyat nihoyatda dilga yaqin. She'rilarida ulug'lanayotgan ezgulik esa oddiy, hammamizga har kuni tanish bo'lib turgan so'zlarda yorqin ifodalananadi.

Tabiatday sodda shoirning o'quvchilarga taqdim etilayotgan «Baxti kulgan g'unchalar» kitobiga kirgan 40 dan ortiq she'rilar hamda topishmoqlarni o'qigan o'quvchi, albatta fikrlashga, nima yaxshi, nima yomon, uning farqiga borishga intiladi.

To'plamdan joy olgan «Kamolning sho'xligi haqida»gi she'rida:

*Kamol sho'xlik g'amin yeb,
O'ynagani o'ynagan.
Hammani kuydiray deb,
O'ylagani o'ylagan.*

«Ko'p kuydirma» degan gapni u onasidan eshitgan. Shuning uchun ham o'yinga berilganida shuni o'laydi...

Endi she'rning davomiga e'tibor bering:

*Urishsang zahrin sochar,
Ketibdi manmansirab.
O'yin desa oshini
Tashlab qochar qo'qqisdan.
So'rasangiz yoshini
Endi o'tdi to'qqizdan.*

To'qqizdan o'tgan bolaning ruhiyatida shundan o'zga nima bo'lishi mumkin. Shuda hayot.

Bunday topqirliklar shoirning boshqa qator she'rlarida ham o'z ifodasini topgan.

Xullas, Tojiboy akaning «Baxti kulgan g'unchalar» kitobi farzandlarimizga keksa Bobojon shoirimizning munosib tuhfasi desak arziydi. She'rlar bolajonlarimiz ma'naviyatini boyitishda, ular tarbiyasida muhim o'rinn tutadi.

Farid USMON,
shoir, O'zbekiston
Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

O'ZBEKISTON - VATANIM

Toshqin daryo, sho'x soylik,
O'xshashi yo'q chiroylit.
Tog'u toshi naqd boylik
O'zbekiston - Vatanim.

Ortiqsan gulistonidan,
Sevaman seni jondan.
Obro' topding jahondan,
O'zbekiston - Vatanim.

Do'stlik, tinchlik qudrating,
Jasur xalqing shuhrating.
Buyuk bo'lmoq da'vating,
O'zbekiston - Vatanim.

Bilmayin sira charchoq,
Madhing kuylayman har choq.
Baxti barqaror, yangroq,
O'zbekiston - Vatanim.

MENING O'LKAM

Mening o'lkam
Juda ko'r kam.
Ko'zim quvnar,
Boqib har dam.
To'rt fasl yoz,
Tong kabi soz.
Yursang yo'lga,
Gul poyondoz.
Ahdi yangroq,
Baxti porloq.
Paxtaga kon,
Boshdan oyoq.
Kelgan mehmon,
Bo'lib shodon
Yashasin der
O'zbekiston!



SHIRMONBULOQ TARONASI

Bizning qishloq juda soz,
Keling do'stlar shu palla.
Gullar bo'lar poyondoz,
Yo'lingizga baralla.

Bir yoni Chilustin tog',
Ko'rib quvnar ko'zingiz.
Tog' usti yam-yashil bog',
Maqtab yetmas so'zingiz.

Anori bor, soyi bor,
Cho'milib zavq olmoqqa.
Maftunkor chiroyi bor,
Qalblarga o't solmoqqa.

Sharsharasi, bulog'i
Orom baxsh etar jonga.
Shu bois gul quchog'i
To'lib ketar mehmonga.

Yo'llari keng, ham ravon,
Uylar marmardan qat-qat.
Ko'chalari charog'on,
Sutday oydin hamma vaqt.

Odamiylik bobida
Kishilari dilkash, mard.
Qaynar gul quchog'ida
Yurtga mehr-muhabbat.

Sizdan xushxabar kutib
Yo'lingizda qulog'im.
Kelsangiz gar to'y kabi,
Gavjum Shirmonbulog'im.



ULUG`LIKDA YAGONA

O'qituvchi degani -
Go'yoki ota-on.
Bildirgumdir ehtirom,
Ular ustoz, hamxona.
Yosh avlodni ardoqlab,
Aql ko'zin ochadi.
Quyosh kabi charaqlab,
Ilm nurin sochadi.
O'qituvchi deganda
Ta'zimda ikki qo'lim.
Aytganin qilmam kanda
Shu-shu charog'on yo'lim.
Mana uning sha'niga,
She'r yozdim, g'azal bitdim.
Olqish aytib nomiga,
She'riy guldasta tutdim.



KAMOLNING SHO'XLIGI HAQIDA

Kamol sho'xlik g'amin yeb,
O'ynagani o'ynagan.
Hammani kuydiray deb,
O'ylagani o'ylagan.

Qishda otib yaxmalak,
Koptok o'ynar yozroqda.
Darsga parvoysi falak,
O'qishga qunt ozroqda.

Hushtak chalinsa ukam,
Ko'chaga yuguradi.
Maktabdan kech qolsa ham,
O'yinga ulguradi.

Suv ichar shoshma-shoshar,
Terlab-pishib, hansirab.
Urishsang zahrin sochar,
Ketibdi manmansirab.

O'yin desa oshini,
Tashlab qochar qo'qqisdan.
So'rasangiz yoshini,
Endi o'tdi to'qqizdan.

HOVLINI KO'RIB CHIQDIM

- Olaparim, Olapar
Qulqlaring buncha kar.
«Kuch-kuch» desam sezmaysan,
Boshing yerdan uzmaysan.

Vaqtida bo'lmay oshing,
Og'rib qoldimi boshing?
- Og'rigani yo'q boshim
Oqlay deb ichgan oshim.

Hovlidan ketmay uzoq,
Mijja qoqmayin mutloq.
Kechasi hurib chiqdim,
Hovlini ko'rib chiqdim.



ULUG BEKNING ORZUSI

OTA:

Sen katta bo'lganingda,
Zo'r kuchga to'lganingda.
Ayt, kim bo'lib ishlaysan,
Dilni qanday xushlaysan?

O'G`IL:

Aytsam sizga, dadajon,
Ulg'aysam men sog'-omon.
Bo'lmoqchiman kosmonavt
Gagarindek jasur, mard.

OTA:

Ofarin senga shovvoz,
Bu orzung juda ham soz.
U ezgulik g'oyasi
Fazo pilapoyasi.

A'lo o'qisang albat,
Bo'lajaksan kosmonavt.
Chiqasan Marsga, Oyga
Orzular mushtoq joyga.

XAYR BOG'CHAM

Hayotxonning tilidan

Yayrab gul quchog'ingda,
Bo'lib ardog'ingda.
Ulg'aydik aql bog'ingda,
Xayr bog'cham, jon bog'cham,
Senga sharaf-shon bog'cham.
Aytib ertak, topishmoq,
Qilding o'qishga chanqoq.
Maktab ochmoqda quchoq,
Xayr bog'cham, jon bog'cham,
Senga sharaf-shon bog'cham
O'qib odam bo'l, deding,
Ulug' yoshga to'l, deding,
Sizlarga oq yo'l, deding
Xayr bog'cham, jon bog'cham.
Senga sharaf-shon bog'cham.



SHARAFLAYMIZ

Kelganda har gal,
Navro'zi olam.
Sumalak qilib,
Zamira xolam.
Yoshu qarini,
Aytib mehmonga.
Shukur keltirib,
Baxtli zamonga.
Navro'z bayramin
O'tkazar chandon.
Qalbida sevinch,
Bo'lib bir jahon.
Bizlar ham quvnab,
Keng davra qurib.
Navro'z tongiday,
Yashnab barq urib.
Tol popuk taqib,
Bir-birimizga.
O'smalar qo'yib
Qosh-ko'zimizga.
O'ynaymiz rosa
Raqsga tushib.
Navro'z sha'niga
Qo'shiq aytishib.

MEN ODOBLY BOLAMAN

Maktabda o'qib a'lo,
Bo'lay deb ahli dono.
Aylaganman jon fido,
Men odobli bolaman.

Kattalar bizga davlat,
Joy bo'shatib men albat.
Olaman duo - rahmat,
Men odobli bolaman.

Kattalarga har doim,
Salom berib muloyim.
Ochaman dil chiroyim,
Men odobli bolaman.

Haq yo'lida yuraman,
O'z so'zimda turaman.
Savobga qo'l uraman,
Men odobli bolaman.

DOSTONNING PUSHAYMONI

Maktabdan kelayotib,
Simyog'ochga tosh otib,
O'ynardi kulib Doston
Qiziq ish bo'ldi shu on.

Otgan toshi o'ziga
Qaytib tegdi yuziga.
Qilmishidan pushaymon,
Bo'ldi o'quvchi Doston.

ISKANA VA TO'QMOQ

Maqtanibdi Iskana:

- Hunarda men mardona
Uyga beraman bezak,
Biladi ahli ziyrak.
- Mensiz bo'lmas rom, eshik,
Chaqaloqlarga beshik.
- Yemaguningcha To'qmoq,
Ishlamaysan sen mutloq!
- Malol kelmasin so'zim,
Seni ishlatgan o'zim -
Debdi To'qmoqboy shu zum.
- Shunaqa gohi rusum,
Iskana sifat banda
Bir kun bo'lar sharmanda.

SABOQ OLIB KITOBDAN

O'rgandim hayot sirin,
Aytib beray qay birin?
So'zlarim bo'ldi shirin,
Saboq olib kitobdan.

Yuz burdim tekin nondan,
Tekinxo'r bevijdondan.
Ruhlandim hur zamondan,
Saboq olib kitobdan.

Tuyg'u-hislarim qaynoq,
Safdaman iyomon - bayroq.
Sozim qo'limda sayroq,
Saboq olib kitobdan.

Turmushimdir farovon,
Qalbim ravshan, charog'on.
Shukur, ushlandi armon,
Saboq olib kitobdan.

SHOIRANING ORZUSI

Shoir buva,
Bering duo.
Katta bo'lib,
Kuchga to'lib.
A'lo o'qib,
She'rlar to'qib.
Bayoz qilib,
O'ynab kulib.
O'xshab sizga,
Kiray yuzga.
- Rahmat, qizim,
Deb baxt tilab.
Yuzin silab,
Qildi duo
Shoir buva.



QORBOBO VA BOLALAR AYTISHUVI

Bolalar:

Qorbobojon, Qorbobo,
Sizga savol bor bobo.
Nega kelmay yoz fasli,
Gullar poyondoz fasli,
Oshib qorli tog'lardan,
Yo'l yurib so'qmoqlardan,
Mag'rur tutib o'zingiz,
Yetaklab Qorqizingiz.
Sovg'a keltirib bizga,
A'lochi o'g'il-qizga.
Ulashasiz baxt tilab,
Yangi yilimiz qutlab.
Kelib har doim qishda,
A'lo bo'l deb o'qishda.

Qorbobo:

Tinglang zavqli so'zlarim,
Quvnoq o'g'il-qizlarim.
Bu bayram qish bayrami,
Yil ayrilish bayrami.
Shuning uchun har qishda,
Kumush rang dilbar qishda.
Aylanmoqqa archangiz,
Shod etmoq-chun barchangiz.
Kelaman-da qor bo'lib,
Sizlarga xumor bo'lib.

ODOBLI QIZ GULHAYO

Shirin so'zlab buvasin,
Olib olqish, duosin.
Keltirar el havasin,
Odobli qiz Gulhayo.

Maktabdan kelib har dam,
Ayam bo'lsin, deb bardam.
Ishiga berar yordam,
Odobli qiz Gulhayo.

Unutmay dada so'zin,
Pokiza tutib o'zin.
Ishlatar aql ko'zin,
Odobli qiz Gulhayo.

Tilagin etsam bayon,
Katta bo'ljam sog'-omon.
Bo'laman der bilimdon,
Odobli qiz Gulhayo.

SPORT KLUBINING POLVONLARI

Sport degani kuch, degani,
Jismoniy baxt quch, degani.
Yoshlar uchun burch, degani,
Sport klubining polvonlari.

Sportda ko'rsatib mahorat,
Orttirmoqdasiz shon-shuhrat.
Deymiz sizlarga «Ming rahmat!»
Sport klubining polvonlari.

Ustozlardan o'rnak olib,
Bor kuchingiz ishga solib.
Hamisha bo'linglar g'olib,
Sport klubining polvonlari.

Omad sizlarga yor bo'lsin,
Allohim madadkor bo'lsin.
Baxtingiz barqaror bo'lsin,
Sport klubining polvonlari.

HUNARLI BO'L

Hunari bor kishini,
Ko'rsangiz turmushini,
Havasingiz ortadi,
Mehringizni tortadi.

Shuning uchun har bola,
A'lo o'qib avvalo.
Hunarga ursa qo'lin,
Topar baxt-iqbol yo'lin.

FARZAND ORZUSI

Otam duradgor
Qo'li gul usta.
Har ishni qilar
Pishiq va puxta.
El xizmatiga
Chayqamaydi bosh.
Shu bois hurmat -
Qilar keksa-yosh.
Tomlar yopadi
Mustahkam, shinam.
Mannun bo'lsin deb
Yashagan odam.
Boryapmiz biz ham
Ota izidan.
Xursand bo'lsin deb
O'g'il-qizidan.

O'G`LIMGA

Bo'lsang asl farzandim,
Odam bo'l, nodon bo'lma.
O'zingsan asal, qandim,
Qimmat bo'l, arzon bo'lma.

Ko'p o'qigin, ko'p bilgin,
Kulib boqar kelajak.
Tabiat qilib ta'zim,
Sirin aytib berajak.

Amaldor bo'lsang, qo'zim,
Jon kuydir el nafiga.
Bo'laman dema o'zim,
Kirib nafsing gapiga.

Vatan ishqida yonib,
Da'vatin etgin bajo.
Shunda dildan quvonib
Bo'laman sendan rizo.

JO'JALAR

Jo'jalarga sochib don,
Zavqlanaman bir jahon.
Chaqirib bir-birlarin
Yashirmayin sirlarin.
«Qo-qo» qilib yeysi don,
Bo'lishib do'st-qadrdon.

NOZIMA

So'zlashlari muloyim,
Odob bilan har doim.
Baxtli bo'lzin iloyim,
Nozimaxon, Nozima.

Sakrab-sakrab o'ynaydi,
Charchashni hech bilmaydi.
Odobsizlik qilmaydi,
Nozimaxon, Nozima.

Qo'shiq aytsa gar o'zi,
Bulbulday yayrar so'zi.
Buvisining yulduzi,
Nozimaxon, Nozima.

UKASI YIG`LAB QOLAR

Ochko'z bola olsa qand,
Ukasiga berib pand,
Shartta og'ziga solar,
Ukasi yig'lab qolar.

MAQTANCHOQLIK - YUZGA DOG'

O'n besh kunlik bo'lib oy,
Nur sochardi serchiroy.
Oyga qadab ko'zini
Dilshod boshlar so'zini:

- Dada, nega oyda dog',
Tug'ilganmi yo shundoq!
Dadasi dedi: - O'g'lim,
Shunday degandi buvim:
Oy ekan ko'p maqtanchoq,
Shu bo'libdi yuzga dog'.

- Maqtanibdi nima deb?
- Oy o'ziga berib zeb,
Quyoshga debdi: - Ey, hoy,
Meni derlar to'lin Oy.

Men olamga chiroqman
Sendan chiroyliroqman.
Shuning uchun odamzot
Menga chandon ixlosmand.

Quyosh tinglab Oy so'zin
Unga tikibdi ko'zin.
Berolmayin Oy bardosh,
To'kibdi ko'zidan yosh.

Yuzi kuyib dog' bo'lib,
So'zi puch yong'oq bo'lib.
Qolgan ekan uyalib,
Chiqaman deb Oy g'olib.

Uqdingmi, erkatoym,
Yodingda bo'lzin doim.
Bo'lImagin hech maqtanchoq,
Maqtanchoqlik - yuzga dog'.

MEN PAXTAOY

Men paxtaoy, paxtaoy,
Mensiz bo'lmas el-yurt boy.
Oltindan qimmat tolam,
Qadrimni bilar odam.

Meni ekkan dehqonlar,
Dong'in aylab dostonlar,
Hayot kechar farovon,
Yayrab-yashnab bearmon.

Men paxtaoy, paxtaoy,
Mensiz bo'lmas el-yurt boy.
Men bilan gullab-yashnab,
Yurtim bo'ldi serchiroy.

YANGI YILIM, JONU DILIM

O'n ikki oy boshisan,
Qirchillama yoshisan.
Shodligim yo'l doshisan,
Yangi yilim, jonu dilim.

Kelsa Qorbobo, Qorqiz,
Quvonamiz barchamiz.
Bezatilgan archamiz,
Yangi yilim, jonu dilim.

Yurtimizda bugun to'y,
Yangi reja, yangi o'y.
Shonli yo'lga qadam qo'y,
Yangi yilim, jonu dilim.



FARID USMONGA

(*Bag'ishlov*)

Farid Usmon,
Zavqli inson.
Suhbat qurgan,
Bo'lar shodor.

O'tkir qalam,
Tutib hardam.
Ijod qilar,
Bo'lib bardam.

Yozib g'azal,
Berib sayqal.
Mangulikka
Qo'ydi haykal.

Farid Usmon,
Bo'lib omon.
Yayrab-yashnab,
Sursin davron.

JASUR OLOV YOSHLIGIM

Xalq yo'lida

Bir nuroniy chol yo'lida,
Cho'loq hassasi qo'lida.
Urintirib o'zini,
Yo'lga qadab ko'zini,
Kelardi o'ychan asta
Yo'qotgandek bir narsa.
Qarshisidan nogohon
Chiqib qoldi uch o'g'lon.
Biri dedi: Bobojon,
Yuribsizmi sog'-omon?
Bizga ayting arzingiz
Yo'qoldimi narsangiz?
Bobo samimiyatdan,
Marhamatu himmatdan
Ko'ngli tog' bo'lib ketdi,
Kayfi chog' bo'lib ketdi.
Soqolini tutamlab,
Xayollarini jamlab,
Ko'zin, xiyol yoshladi,
Ohista so'z boshladi:
- Eh, sho'x oqar soylarim.
Uchqur gijingtoylarim.
Tog'dayin bardoshligim,
Jasur olov yoshligim.

**Qidirib necha zamon
Bekor bo`libman sarson.
Endi bilsam u sizda
Ekan, qaro qoshligim.
Illohim bo`ling bardam,
Tangrim asrasin har dam.
Xo`p omadi chopganday,
Qidirganin topganday,
Tashlab ohista qadam,
Ketib borar xotirjam.**



BOG`CHAMIZ

Juda shinam, juda soz
«Bolalar bog'cha»sidir.
Go'yoki har bir ovoz,
Bulbuli bog' sasidir.
Tongda uyg'oting oyи,
Hech turmay men erkalab.
Bog'chamizning chiroyи
Maftunkordir ertalab.
Bunda bekamu ko'stlik,
Hammaning kayfi chog'dir.
Shiorimizki - do'stlik,
O'g'il-qizlar inoqdir.
O'ynaymiz goh kun bo'yi,
Miriqib dam olamiz.
Bog'chamizning obro'yi,
Baland deb jar solamiz.
Vaqtida qo'lni yuvib,
Yeymiz lazzatli ovqat.
Bir-birimizni quvib,
Yuguramiz betoqat.
Raqsga tushamiz yo
Ko'shiq, ashula aytib.
Juftlashib uchamiz yo,
Xalanchalak yoz payti.
Mehmonga tutib sharbat,
Deymiz: - Keling siz albat.
Bahavo, ko'rкam, shinam,
Bog'chamiz yoqar biram.

TOPISHMOQLAR

Pasti teshik, tepasi teshik,
O'rtasi uy, o'ti, suvi bor.
Na unda bor darcha, na eshik
Mehmon kelsa juda dastyor.

(*Samovar*)

Sadaf devor orqasida
Ajoyib qushcha yashar.
Sha'niga she'r yo qasida
To'qisangiz yarashar.
Bulbulni ham sayraganda
Maftun etar ovozi.
Eshitganlar yayraganda
Omad tilashga rozi.

(*Til*)

Xartumi bor-u filmas,
Filni nazarga ilmas.
Yuk ko'tarsa xartumi,
Qoyil elning mardumi.

(*Ekskavator*)

Odamlarni to'ydirib,
O'zim sira yemayman.
Yaxshilikka yo'ydirib,
Ishimdan «dod» demayman.

(*Qoshiq*)

Momiq qizlar qo'liday,
Yorug' «somon yo'li»day.
Azizdir har tolasi,
Mehrimiz zuvalasi.
Ayamasang xizmating,
Ko'tarar shon-shuhrating.
Uni ekish bir baxt-da
Elimiz ko'rki...

(*Paxta*)

«Shal pangquloq» laqabi
Qishda rangi qor kabi.
Yozda kulrang, g'am emas
Chunki ko'kat kam emas.
Ovchiga ov azaliy,
Go'shti axir mazali.
Qochsa ham uy'on, bu yon,
Ilinar sho'rlik...

(*Quyon*)

Egri-bugri otasi
Yoyma chelpak onasi.
Shirin-shakar bolasi
Mevalarning a'losi,
Bu meva nima qizim?

(*Uzum*)

Tovuqlarning zotiga
Maqsadi bermoq qiron.

La'nat qo'shib otiga
Ayyor yurar navqiron.
Ilindimi bo'ynidan,
Tovuq tushar qo'ynidan.
Shunda bo'ladi kulgi,
Topgan aytsin, u...

(*Tulki*)

Ahillikda hattoki
Insonga ham ibratdir.
Hasharotlarning poki
Tuzumi - serxislatdir.
Kasbiga mohir chevar,
Kanoatli ishsevar.
Teng huquq, chaqqon bari,
U nimadir?...

(*Bolari*)

Yirtqich qorni tez ochar,
Odam bor joydan qochar.
Chek qo'yib goh qo'rquvga
Hamma ketgach uyquga.
Bo'yab ikki ko'zingiz,
O'g'irlar yosh qo'zingiz.
Yesa ham, yemasa ham,
Lab-lunji qon muttaham.
Ovchini ko'rsa sho'ri
Quriydi, u shum...

(*Bo'ri*)

MUNDARIJA

Tabiatday she'riyat	3
O'zbekiston - Vatanim	5
Mening o'ljam	6
Shirmonbulloq taronasi	7
Ulug'likda yagona	9
Kamolning sho'xligi haqida	10
Hovlini ko'rib chiqdim	11
Ulug'bekning orzusi	12
Xayr bog'cham	13
Sharaflaymiz	14
Men odobli bolaman	15
Dostonning pushaymoni	16
Iskana va to'qmoq	16
Sabiq olib kitobdan	17
Shoiraning orzusi	18
Qorbobo va bolalar aytishuvi	19
Odobli qiz Gulhayo	20
Sport klubining polvonlari	21
Hunarli bo'l	22
Farzand orzusi	22
O'g'limga	23
Jo'jalar	23
Nozima	24
Ukasi yig'lab qolar	24
Maqtanchoqlik - yuzga dog'	25
Men paxtaoy	26
Yangi yilim, jonu dilim	27
Farid Usmonga	28
Jasur olov yoshligim	29
Bog'chamiz	31
Topishmoqlar	32

Shamsiddin Tojiboy o'g'li OFARIN. «Baxti kulgan g'unchalar». (She'rlar). «Andijon nashriyot-matbaa» OAJ.

Muharrir:

F. Ibaydullayev.

Tex. muharrir:

M. Mirzakarimova.

Musavvir:

S. Jo'raeva.

Sahifalovchi:

S. O'lmasova.

Musahhihlar:

N. Tojimatova,

N. Yuldasheva.

Bosmaxonaga 2007-yil, 4-oktyabrda berildi. Bosishga 2007-yil 3-dekabrda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/32, ofset bosma. Hajmi 2,25 b.t. Buyurtma № 2430. Adadi 1000 nusxa. Bahosi kelishilgan holda.

**«Andijon nashriyot-matbaa» OAJ bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71.**